

МУГАЛЛИМ ҲАМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



ISSN 2181-7138

№ 1 2022 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилеженов

Редакция аъзалары:

Мақсат АЙЫМБЕТОВ
Нафмет АЙЫМБЕТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Гулбахар АБЫЛОВА
Өсербай ӨЛЕҲОВ
Аскар ДЖУМАШЕВ
Гулнара ЖУМАШЕВА
Батырбек КАИПБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Сарсен КАЗАХБАЕВ
Гулмира КАРЛЫБАЕВА
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Зухра СЕИТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Ризамат ШОДНОВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулурухсор ЭРТАШЕВА

Шўлкемлестириўшилер:

Қарақалнақстан Республикасы
Халық билимлендириў
Министрлиги, ӨЗПНИИ
Қарақалнақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы

Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды

Қарақалнақстан Баспа сөз хам
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гуўалық
берилген.

Мәзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00

e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,
mugallim-pednauk@mail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған узиндилер «Мугаллим хам узликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп корсетилиўи шэрт. Журналға 5-6 бет квлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шриф тинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген маглыўматларға автор жуўапкер.

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲАМ АДЕБИЯТ

<i>G'anibayeva B., Abduraxmanov M. Tilimizdagi omonim so'zlarning ahamiyati va tahlili</i>	4-8
<i>Юсупова Ф.М. Рус тили фани ўқитувчисиди маданиятлараро мулоқот компетенциясини шакллантиришининг ўзига хос хусусиятлари</i>	8-15
<i>Нарманов А.Х. Болалар нутқини ривожлантириши илмий-педагогик муаммо сифатида</i>	15-19

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

<i>Ботирова Ш.И. Принцип социального партнерства в преподавании инновационного кластера педагогического образования</i>	20-23
<i>Tashtemirova S.A., Tashtemirov R.A. Pedagogical approaches in education and their importance</i>	24-30
<i>Жабборов О.М. “Тарбия” фани ва унга оид меъёрий хужжатлар</i>	30-36
<i>Дусчанова Н.С. Шахсга йўналтирилган ёндашув афзалликлари</i>	36-42
<i>Azimov D.G'. Imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish va tarbiyalashda musiqaning motivatsion va didaktik imkoniyatlari</i>	42-47
<i>Tashpo'latova D. Integratsiya asosida ta'lim samaradorligini oshirish usullari</i>	47-52
<i>Raxmonov N.B. Inson hayoti xavfsizligini ta'minlash masalasida pedagogik ta'lim-tarbiya zarurati</i>	52-58
<i>Kurbanova F.K. Chet tilini o'qitish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish usullari</i>	58-66
<i>Shaymatov J.N. Ofitser-o'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash</i>	66-72
<i>Eshqoraev Q.A. Masofaviy ta'lim modellari va uning xususiyatlari</i>	72-78

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛҚ ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

<i>Мусурмонов Р., Мусурмонова М. Талабаларга Ал-ҳаким ат-Термизийнинг илмий-педагогик меросини ўргатиши замон талаби</i>	79-85
<i>Ахмадҷонов Д.Б. Герменевтик ёндашув асосида бағрикенглик компетенциясини ривожлантириши</i>	85-89

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

<i>Исмаилов А.А. Роль мультимедийных технологий в преподавании физики</i>	90-94
---	-------

БАСЛАЎЧИ КЛАСС, МЕКТЕНКЕ ШЕКЕМГИ ТАРБИЯ

<i>Эшманова Н. Бошланғич синф ўқувчиларида ёзма нутқни такомиллаштириши тизими</i>	95-99
--	-------

ФИЗИКАЛЫҚ ТАРБИЯ ҲАМ СПОРТ

<i>Мардонов Ш.Қ., Абдувайитова Д. Ўсмирларда спорт эстетикасига оид тасаввур ва қизиқишларини шакллантириши</i>	100-106
---	---------

4. Lobova A.F. Bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirish: o'qituvchilar uchun darslik. Ekaterinburg, 1999.
5. Medvedova E.A., Levchenko I.Yu., Komisarova L.N., Dobrovolskaya T.A. Maxsus ta'limdagi badiiy pedagogika va art terapiya: O'quv qo'llanma. tirnoq uchun. o'rtacha va undan yuqori. ped. o'rganish. muassasalar. - M. Akademiya, 2001.
6. Ovchinnikova T. Sog'liqni saqlash uchun musiqa. - Sankt-Peterburg: Rassomlar uyushmasi, 2004 y.
7. Mahkamova Sh.R. "Pedagogik ta'limning innovatsion klasteri musiqa madaniyati darslarida" Academic Research in Educational Sciences, 2(12), 477-482.
8. Petrushin V.I. Musiqiy psixoterapiya. - M.: "VLADOS", 1999 yil
9. Nazarova L.D. Xalq ijodiyoti terapiyasi - SPb.: "Rech", 2002.
10. Osipova A.A. Umumiy psixoterapiya: universitet talabalari uchun o'quv qo'llanma. - M.: "Sfera" TK, 2001.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada hozirgi kunda yurtimizdagi nogironligi bo'lgan bolalarga yaratilayotgan imkoniyatlar va ularning musiqa bilan shug'illanish jarayonidagi ruhiyatiga ta'siri borasida so'z boradi. Yosh avlodni jamiyatdan ajralib qolmasliklari va ularning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish ilmiy asoslab beriladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются возможности, созданные для детей с ограниченными возможностями в нашей стране сегодня и их влияние на психику в процессе занятий музыкой. Молодое поколение не должно быть изолировано от общества и раскрытие его способностей дается на научной основе.

SUMMARY

This article discusses the opportunities created for children with disabilities in our country today and their impact on the psyche in the process of engaging in music. The young generation should not be isolated from society and the discovery of their abilities is given on a scientific basis.

INTEGRATSIYA ASOSIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Tashpo'latova D.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'lar: integratsiya, yaxlitlik, birlashuv, tamoyil, fanlararo uzviylik, mavzulararo uzviylik, sub'yektlar hamkorligi, iqtidor, kasbiy kompetentlik

Ключевые слова: интеграция, целостность, унификация, принцип, междисциплинарность, взаимозависимость, субъектное сотрудничество, талант, профессиональная компетентность.

Key words: integration, integrity, unification, principle, interdisciplinarity, interdependence, subject cooperation, talent, professional competence.

XXI asr intellektual boylik, yuksak bilim va salohiyat talab etilishi taraqqiyot yo'lidan izchil rivojlanishning hal qiluvchi muhim omili sifatida zamonaviy bilim va

kasb-hunarni egallagan, mamlakat istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yoshlarni tarbiyalashni nazarda tutadi. Jamiyat taraqqiyoti va kishilarning turmush tarzidagi yuksalishlarni ta'lim, fan va ishlab chiqarishning faol integratsiyalashuvisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu o'rinda integratsiya terminiga izoh berib o'tadigan bo'lsak, u lotin tilidagi "integration" so'zidan olingan bo'lib, muayyan birliklarni tiklash, to'ldirish ma'nolarini bildiradi. Amaliyotda bu termin ikki va undan ortiq sub'yektlarning bir maqsad atrofida birlashishi bilan bog'liq jarayonlarni anglatadi.

Integratsiyalashuv jarayoni turli xil kengayish darajalariga ta'sir qiluvchi kompozitsion va kommunikativ tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

Kompozitsion qismlar tarkib va tuzilish bilan bog'liq bo'lib, birlashuvchi sub'yektlarning norasmiy va me'yoriy chegaralarini aniqlashni talab qiladi.

Kommunikativ qismi esa sub'yektlar o'rtasidagi aloqadorlikning shakli, yangi sharoitda ularning tamoyil va mexanizmlarining o'zgarishlarini nazarda tutadi.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimida integratsiyaning o'rni ortib, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quv faoliyati, oliy o'quv yurti talabasining shaxsiy rivojlanishi natijasida, ularning ijodiy va ilmiy qobiliyatlarida namoyon bo'lmoqda. Aytib o'tish kerakki, faqat zarur bilim va ko'nikmalarni egallash bilan cheklangan an'anaviy ta'lim strategiyasi shaxsning umuminsoniy va madaniy qadriyatlarni qabul qilishdagi ehtiyojlarini kamaytirib, uni madaniyatli va kompetentli shaxs sifatida rivojlanishiga etarli darajada javob bermaydi. Mazkur masalaning echimlaridan biri ta'lim jarayonidagi integratsiya muammosi bo'lib, u ko'plab tadqiqotlarda, ilmiy manbalarda o'z aksini topgan. Ta'lim tizimining amaliy jarayonlariga integratsion yondashuvlarni joriy etish, amaliy tadqiqotlar olib borishda integratsiyaning tarixiy rivojlanishini bilish, kuzatish, tahlil qilish va milliy pedagogikaga mos holda joriy qilish imkoniyati mavjud bo'lgan eng dolzarb yondashuvlarni tanlab olish imkoniyatini beradi. Integratsion ta'limni tashkil etishda uning umumiy tuzilmalarini qayta isloh qilish, ta'lim oluvchilarni berilgan axborotni tushunish, idrok etishga yo'naltirish, ularga butun dunyodagi barcha jarayonlarning o'zaro aloqasi haqidagi tushuncha va g'oyalarini shakllantirishga yordam berish lozim[1].

Integratsiya terminining ilmiy holati birinchi marta XVII asrda integral hisoblash nazariyasida keltirilgan. Bu erda integratsiya bir tomondan, differentsiyatsiyaga teskari jarayon sifatida ko'rib chiqilgan, ikkinchi tomondan esa, birlashtirishning o'ziga xos turi sifatida qaralgan. Ta'limda esa integratsiya g'oyasi Ya.A.Komenskiy[2] tomonidan ilgari surilgan bo'lib, bu ko'p ma'noli tushuncha XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan. Integratsiya ijtimoiy pedagogikadagi eng muhim tushuncha sifatida uning nazariy asoslarini rus olimlari B.M.Kedrov, N.V.Kuz'mina, V.A.Lektorskiy, V.N.Maksimova, A.P.Ogurtsov, A.I.Rakitov, V.S.Stepin, M.G.Chepikov, B.G.Yudin va boshqalarning ilmiy

izlanishlarida ko'rish mumkin. Bugungi kunda bu ilmiy kategoriya pedagogika fanining kontekstiga moslashtirilgan. A.Ya.Danilyuk, N.I.Kondakov, Yu.S.Tyunnikov va boshqalarning tadqiqotlarida integratsiya “yaxlitlik, butunlik, tizimlilik, umumiylik” o'rnida “tamoyil, jarayon va natija”, “butun tarqoq bo'laklarning birlashuvi” sifatida tavsiflanadi[3].

Integratsiyaning asosida sinergiya (yunoncha “synergos” – “muvofiglashgan”, “o'zaro hamkor”) qonuni yotadi. Sinergiya qonuniga asosan har qanday sub'yekt o'zida faoliyatining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi barcha jihatlarni birlashtira olmaydi, u har doim boshqa sub'yektlar bilan hamkorlik qilishga ehtiyoj sezadi. Turli sub'yektlardagi mazkur jihatlarning birlashtirilishi samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi.

Fanlar integratsiyasini ularning o'zaro aloqalari shakli sifatida tushunish kerakligini ta'kidlab o'tgan B.M.Kedrov, bilimlarning turli sohalarida umumiy tadqiqot maqsad va vazifalari mavjudligini, undagi muammolarni hal qilish va amalga oshirish uchun muayyan yagona bilim vositalari tizimi zarur degan fikrga keladi[4].

Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini samarali amalga oshirish uchun pedagogik salohiyat, innovatsion muhit, innovatsion ta'lim hamda “maktab-laboratoriya”lar muhim hisoblanadi. Ushbu komponentlarda kadrlar tayyorlashda ilmiy-pedagogik salohiyatning o'rne, rivojlanish tamoyiliga asoslanganlik, zamonaviylik, yangilanish, modellashirish, nazariya va amaliyot uyg'unligi kabi integratsiya jarayoni uchun muhim bo'lgan jihatlari o'z aksini topgan.

Integratsion ta'limning rivoji ta'lim shakli va mazmunini to'g'ri, pedagogik asoslangan tarzda olib borish bilan bog'liq bo'lib, bunda ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarning chuqur tahlili talab qilinadi.

Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiyani, sog'lom muhit, o'zaro hurmat va ijodiy hamkorlik mavjud bo'lgan pedagogik jamoada amalga oshirish mumkin. Bunda o'quv jarayonlarini integratsion yondashuv asosida olib borishning quyidagi muvaffaqiyatli tomonlarini keltirib o'tish mumkin:

integratsion yondashuvdagi boshlang'ich sinf o'quv jarayonlarida o'quvchi tabiatni butun, yaxlit holda tasavvur etadi;

o'quvchi imkoniyatlari ortib, tabiatni o'z qobiliyatiga ko'ra o'rganadi, shu orqali u mantiqiy fikrlab, mavjud xodisalar, sabablar va ularning echimlari bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, natijada uning muloqot, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatlari, nostandart fikrlash darajasi shakllana boshlaydi;

bunday o'quv jarayonlarida o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajalari ortadi.

Demak, boshlang'ich sinf darslarini integratsion shaklda tashkil etish nafaqat dars sifatini, o'quvchilar dunyoqarashini ham har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi. Integratsion o'quv jarayonlarini olib borishda birinchi navbatda, o'quvchiga fanlararo, mavzulararo bog'liqlikni etkazib berish maqsadga muvofiq, aks holda o'quvchi idrok qilmagan integratsiya davomida tushunmovchilikka duch kelishi, mavhum holatga tushib qolishi, jarayon oxirida ham noto'g'ri xulosa taqdim qilishi mumkin.

Ta'lim turlariaro kompetentsiyaviy talablarni ishlab chiqish va joriy etilishida ta'lim jarayoni integratsiyasi klaster yondashuvi asosida tashkil etish yaxshi natijalar beradi. Demak, boshlang'ich ta'lim tizimidagi integratsiya jarayoni har bir sub'yektning quyidagi maqsadlarga erishishiga imkon beradi:

ta'limga yangicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqarish va tatbiq etishda bundan manfaatdor bo'lgan barcha hamkorlar imkoniyatlaridan foydalangan holda o'z mavqeyini yanada oshirish;

umumiy maqsadlardan kelib chiqqan holda, xususiy maqsadlariga erishish uchun hamkorlardagi mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish.

Bu bilan sub'yektlarning har biri alohida va umumiy maqsad atrofida birlashib, faqat o'z samaradorligini oshirishdangina emas, shuningdek, boshqa sub'yektlarning ham yuqori samaraga erishishidan manfaatdor bo'ladi[5].

Ta'lim samaradorligining ustuvor omili hisoblangan integratsiyani turli darajalarda va yo'nalishlardagi quyidagi faoliyatini sanab o'tish mumkin:

mamlakat ilm-fanining jahon ilm-fani bilan integratsiyasi;

ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi;

davlat, hudud va muassasa darajasidagi integratsiya;

turli xil sohalaridagi ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligi;

ta'lim maydonida ta'lim turlarining barchasini uzluksiz ta'limning yagona tizimiga integratsiyalash (maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, maxsus va qo'shimcha ta'lim va b.);

ta'limning turli bosqichlaridagi (umumta'lim nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, yuqori sinf) uzviylik;

turli sohalaridagi bilimlar integratsiyalashuvi (fan, madaniyat, san'at, iqtisodiyot va hokazo);

kasbiy bilimlarning ilmiy tadqiqot bilan integratsiyalashuvi (tanlov nazariyasi asosidagi kasbiy bilimni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish);

fanlararo integratsion ta'lim (umumta'lim o'quv rejalaridagi fanlarning uzviyligi);

mavzulararo va mavzu ichidagi bilimlar integratsiyasi (muayyan fan negizidagi mavzular uzviyligi va izchilligi);

o'qitish metodlari, texnologiyalari, tashkil etish shakllari integratsiyasi;

ta'lim jarayonining turli ishtirokchilarini yagona ta'lim makonida integratsiyalash (ta'lim beruvchilar, ta'lim oluvchilar ota-onalar, maxsus ijtimoiy-madaniy guruxlar (nogironlar, migrantlar) va b.);

ta'limning barcha ishtirokchilari tarbiya va madaniyatini integratsiyalash (rahbar, xodim, ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, ota-ona, ijtimoiy buyurma talabgori) va hokazo.

Ta'lim tizimini integratsiyalashtirish jarayoni klaster asosida amalga oshirilib, uni isloh etishga doir bir qator ilmiy, uslubiy, tashkiliy va amaliy ishlar olib borilgan. Bu harakatlar natijasida barkamol avlodni shakllantirish va bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ijobiy natijalarga erishilmoqda[6].

Ta'lim sifatini quyidagi integratsion usullarda samaradorligi ortadi:

1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilimi, ishlash uslublari, mahorati, qobiliyat va fazilatlarini butunligini ta'minlash hamda kasbga yo'naltirish, kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'quvchilar tomonidan pedagogik va texnik bilimlarning kombinatsiyalashgan bir butun holda o'zlashtirilishi jamiyatga etuk, raqobatbardosh mutaxassisni ta'minlashda samara beradi.

2. Integratsiya sharoitida ta'lim sifatini boshqarishda o'qituvchi faoliyatining barcha kompetentsiyalarini yaxlit holda takomillashtirish va yuqori natijaga erishish uchun o'quv jarayonini rejalashtirish, loyihalashtirish, texnologiyalashtirish, qo'yilgan natijaga erishish uchun tanlangan usul va vositalarni o'zaro uzviylik va izchillikda olib borishi ta'lim sifatini yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

3. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini chuqurlashtirish va takomillashtirish fanlararo, mavzulararo individuallashtirish va tabaqalashtirilgan ta'lim asosida amalga oshirilishi uning kelajakdagi muvaffaqiyati garovi bo'lib xizmat qiladi.

4. O'quv jarayoni tashkiliy shakl va usullari, uni samarali tashkil etuvchi sharoit va qo'llaniladigan uslub va texnologiyalar bilan birgalikda integratsiya sharoitida olib borilsa sifatli ta'lim ta'minlanadi.

5. Integratsiya jarayonida o'quvchi tafakkurini, kreativligini rivojlantirish uchun individual ishlash, motivatsiyani kuchaytirish, mustaqil ta'limga yo'naltirish, o'z-o'zini rivojlantirish, nazorat qilish, baholash kabi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tarkibiy qismlarini o'zaro izchil olib borish orqali o'quvchi iqtidori rivojlanadi hamda sifatli bitiruvchi ta'minlanadi[7].

Ta'lim kontekstida esa, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiyani takomillashtirishda, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini umumta'lim maktablariga birlashtirilgan holda, fanlarni o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion modellarni tashkil etishda namoyon bo'ladi. Ta'lim oluvchi olgan

nazariy bilimlarini amaliy jarayonlarda qo'llashi orqali inson-texnika, inson-jamiyat, fan-tabiat munosabatlarining keng qamrovli jarayon ekanligiga ishonadi va uning ichki dunyosi bilan jamiyat o'rtasidagi muhim kompetentsiyalar shakllanadi. Ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya natijasida ta'lim oluvchi egallagan kompetentsiyalar uning ta'limdan keyingi faoliyatida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etishida, kasbning turli sohalariga tayyor bo'lishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Muhamedov G'.I., Xodjamqulov U.N., Toshtemirova S.A. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri // Monografiya. – Toshkent, 2020. 280 b.
2. Коменский Я.А. Буюк дидактика. –Т.: Ўқитувчи. 1977. –Б. 338.
3. Данилюк А.Я. Теория интеграции образования. – Ростов на/Д.: 2000. - 440.с.
4. Кедров Б.М. О синтезе наук // Вопросы философии, № 3, 1973. - С. 81-85.
5. Toshtemirova S.A. Umumta'lim muassasalarida ta'lim klasterini joriy qilishning nazariy asoslari va amaliy jixatlari // Uslubiy qo'llanma. –Т.: 2020. 75 b.
6. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari // pedagogika fanlari doktori diss.. avtoref... – Chirchiq, 2020. –B. 59.
7. Toshtemirova S.A. Klaster yondashuvi asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish // pedagogika fanlari falsafa doktori diss.. avtoref... – Chirchiq, 2021. –B. 53.

REZYUME

Maqolada jamiyatda integratsiyaning ahamiyati, ta'lim tizimida uning zarur omilligi, integratsiya asosida ta'limni tashkil qilish bilan bog'liq ilmiy va amaliy natijalar tahlil qilingan bo'lib, uning ta'lim samaradorligini oshirishdagi usullari, fanlararo, mavzulararo integratsiyaning muhim xususiyatlari va kasbiy kompetentlikdagi ahamiyati keltirib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируется значение интеграции в обществе, ее необходимый фактор в системе образования, научные и практические результаты, связанные с организацией образования на основе интеграции, ее методы повышения эффективности образования, важные черты междисциплинарной, междисциплинарной интеграции. и профессиональной компетентности.

SUMMARY

The article analyzes the importance of integration in society, its necessary factor in the education system, scientific and practical results related to the organization of education based on integration, its methods for improving the effectiveness of education, important features of interdisciplinary, interdisciplinary integration. and professional competence.

**INSON HAYOTI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALASIDA
PEDAGOGIK TA'LIM-TARBIYA ZARURATI**

Raxmonov N.B.

Chirchiq Oliy Tank Qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti
“Jangovar ta'minot” kafedrasida katta o'qituvchisi